O`ZLIK

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti 1-bosqich 25\3 GURUH talabalari

Xolmirzayeva Madina Begzod qizi
Qoryog`diyeva Muhabbat Nurmuhammad qizi
Boltaboyeva Hayotxon Oybek qizi
Muhammadjonova Ismigul SHerzod qizi

Nurmuhammadova Fotima Ramil qizi

Samarqand davlat pedagogika institute Aniq va amaliy fanlar fakulteti

Shamsiyev Sanjar Bahriddin o`g`li

Ilmiy rahbar: **Gulnora Mirzaraximova**

Annotatsiya. Ushbu maqola yordamida bugungi globallashgan davrda inson shaxsiyati, “Men”i, shaxsiy fikri o`zligi qay darajada muhim ekanligi va jamiyatimizda bolalarning o`z qat’iy qarorini shakllantirish qay darajada muhimligi yoritib beriladi. shuningdek bolalarni solishtirish va taqqoslash halatlarining induvid va shaxs hayotida foyda va zaralari haqida ham to`xtalib o`tadi.

**Kalit so`zlari**: o`zlik, fikr, qaror, solishtirish, induid, shaxs, inson “Men”i.

Абстрактный. В этой статье будет освещено, насколько важны человеческая личность, «я» и личностная идентичность в современную эпоху глобализации, и насколько важно для детей формировать собственные твердые убеждения в нашем обществе. Также будут рассмотрены преимущества и недостатки сравнения и противопоставления детей в их индивидуальной и личной жизни.

Ключевые слова: идентичность, мышление, решение, сравнение, индивид, личность, человеческое «Я».

O`zlik bu - Psixologiya fanida “o‘zlik” tushunchasi insonning o‘zi haqidagi tizimli tasavvurlari, baholari va munosabatlarini ifodalovchi muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ushbu tushuncha self-concept bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, individning o‘z “Men”ini anglash jarayonini aks ettiradi.Ilmiy yondashuvlarga ko‘ra, o‘zlik - bu shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatlari, ijtimoiy rollari va individual tajribasiga asoslangan holda shakllanuvchi murakkab psixologik tizimdir. U insonning “Men kimman?” degan fundamental savolga bergan javoblari majmui sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zlik tuzilmasi odatda bir necha komponentlardan tashkil topadi. Birinchidan, kognitiv komponent - bu shaxsning o‘zi haqidagi bilimlari va tasavvurlari yig‘indisidir. Ikkinchidan, affektiv (emotsional) komponent - bu insonning o‘ziga bo‘lgan hissiy munosabatini ifodalaydi va u self-esteem tushunchasi bilan uzviy bog‘liqdir. Uchinchidan, xulqiy komponent - bu o‘zlikning inson faoliyati va xatti-harakatlarida namoyon bo‘lishini anglatadi.

Fikr bu - insonning borliqni bilvosita va umumlashtirilgan tarzda aks ettirishiga xizmat qiluvchi muhim kognitiv jarayon bo‘lib, u ilmiy adabiyotlarda thinking (tafakkur) atamasi bilan

ifodalanadi. Tafakkur shaxsning muammolarni hal etishi, qaror qabul qilishi va yangi bilimlarni egallashida markaziy o‘rin tutadi.

Ilmiy nuqtayi nazardan, tafakkur predmet va hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishlar hamda qonuniyatlarni aniqlashga yo‘naltirilgan aqliy faoliyat bo‘lib, u umumlashtirilganlik, bilvositalik va maqsadga yo‘naltirilganlik kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Ushbu jarayon tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va abstraksiyalash kabi aqliy operatsiyalar orqali amalga oshadi.Tafakkur turli shakllarda namoyon bo‘ladi, jumladan, mantiqiy va ijodiy tafakkur. Mantiqiy tafakkur logical reasoning asosida izchil xulosalar chiqarishga xizmat qilsa, ijodiy tafakkur creative thinking yangi g‘oya va yechimlarni ishlab chiqishni ta’minlaydi.Tafakkur muammoli vaziyatlarda yaqqol namoyon bo‘lib, problem solving jarayonida o‘z ifodasini topadi. Bu jarayonda shaxs mavjud ma’lumotlarni tahlil qiladi, ularni qayta ishlaydi va maqsadga muvofiq xulosaga keladi.

Qaror bu- muayyan vaziyatlarda bir necha tanlovlar ichida maqbul variantni tanlash jarayoni hamda u tafakkurga asoslangan holda tahlil va baholash orqali amalga oshadi va mantiqiy va intuitive shakllarda namoyon bo`ladi.

Individ bu- insonning biologik mavjudot sifatidagi umumiy ifodasi bo`lsa, shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanuvchi, ong, qadriyat va xulq tizimiga ega inson hisoblanadi. Shaxs haqida fikr yuritish fanlar sirasiga psixologiya va pedagogika fanlari kiritish mumkin[1].

Yillar mobaynida bola ulga`ayib balog`at yoshiga yetguniga qadar o`zing bo`l! o`zgalarga o`xshama deb ta’kidlashadi, biroq vaqti soati yetib boshqalar kabi natijaga erisha olmasa, yuksalmasa, qara! Qara! Qara! Qolganlarga deyishadi. Afsuski, kishi imkoniyatlari, qobilyatlaridan kelib chiqib maslaxat berishmaydi. To`g`ri ba’zan qolganlar misolida tubanlik qariga botganlar, bilim bulog`idan kechmaganlar, ma`naviyat ummonida suzmaganlar uchun yashab o`tgan va hozirgi jamiyatda hayot bo`lgan yaxshi va yomon kimsalara hayotidan, qilgan ishlaridan misol keltirish tahsinga sazovor. Bu ishga faqatgina barakalla yaxshi qilding deyishimiz mumkin. Negaki, bola ulardan o`ziga tegishli saboqni oladi. U yaxshi fazilatli, uddaburon, tadbirkor, muvaffaqqiyatli,zehnli, qat’iyatli bo`lsa, eshtiuvchi ham havas bilan qarab o`z yo`lini tanlashi, hech bo`lmaganda, bu hayotda yaxshi yashash uchun avval maqsad, keyin esa natijaga erishish kerakligini tushunib yetadi. Agar aytilayotgan odam, o`g`ri-muttaham, ilmsiz, badxulq,madaniyatsiz va gunohkor bo`lsa, u qilayotgan ishlar to`g`ri emasligini tushunib yetadi va o`z hayotiga nazar tashlaydi va o`ziga savol beradi. Ho`sh, men ham ular kabi yomonmanmi? Javob ha bo`lsa, endi o`z nafsi va ongi o`rtasida ziddiyatning paydo bo`lishi turgan gap. Javob yo`q, men ular kabi emasman bo’ladigan bo`lsa, hayotida davomida ularga o`xshamaslikka harakat qiladi va ezgu amallarni doimo tarafdori bo`ladi. Bu esa kishi imkonsiz vaqtida misol keltirishning foydalari. Ammo ba’zi bir insonlar misol berish orqali pand nasihat qilishni taqqoslash, solishtirishdek, og`riqli tushunchalarni mutlaqo boshqa narsa ekanligini anglay olmaydi. Bu avvalo yoshlar, keyin esa jamiyat rivojida o`z salbiy ta’sirini ko`rsatmoqda. Misol chun, ota-onalar har doim farzandiga yaxshi bo`lishni xohlaydi. Shu sababli ko`p narsaga o`zining “eng to`g`ri” qarorini o`tkazishni harakat qiladi. Ammo, keyinchalik farzandi va boshqa mustaqil fikrlaydigan va qaror qilish bilan ulg`aygan bolalar bilan solishtirish marafoni boshlanadi. O`sha vaqtlarda “palonchining qizi unday qilibdi, pistonchining o`g`li bunga erishibdi” degan gaplar urfga aylanadi. Bu jarayon bolada qahr, ko`rolmaslik, pessimestlik, ya’ni hayotdagi har narsaga nisbatan tanqidiy fikrda bo`lish paydo qiladi. Hamda yillar davomida pok hali shakllanib ulgurmagan qalbida alamzadalik, nafrat tuyg`usi

alanga oladi va ori, nafsoniyati va g`ururini kuydirib kul qiladi. Bu kul bemehrlik va befarqlik bo`lib, bola qon tomirlari orqali butun tanani egallashi turgan gap. Albatta, bu jarayon tashqaridan qaraganda sezilmaydi. Toki, bola o`z alamlarini turli yo`l bilan boshlamaguniga qadar. Agar bu holatning oldi olinmasa, ruhiyatidagi kurashlar davolab bo`lmas hissizlik kasalini yuzaga keltiradi. To`g`ri, darnini bergan Alloh davosini ham beradi va o`limdan boshqa hamma narsaning iloji bor, qalb deb atalmish nozik, oppoq qog`ozda qancha o`chirib tashlanmasin chuqur va o`tkir izlar qolib ketadi. SHunga qaramasdan, qora ranga bo`yalgan qismigina o`chib ketishi mumkin.

Yoshlikdan bolaning faqat o`zi bo`lish undaylik, begonalar misoli va ularning g`alabasi balki bu shaxs qobilyatlariga mos emasdir. O`zimizga tegishli bo`lgan o`zlik qachonki biz atrofimizni o`rab turgan olam va odamlarning harakatiga bo`lgan turli qarashlarimiz orqali rivojlanar ekan, ko`proq tinglash va jimgina tomoshabin bo`lish, asta-sekinlik bilan o`z ”Men”imizni komillik cho`qqisi sari yetaklasak, nur ustiga a’lo nur bo`lar edi. Shuningdek, kanadalik mashhur notiq, yozuvchi Robin Sharma ham yorqin hayot amali,aynan, o`zlikni anglash amali ekanligini ta’kidlaydi.

-yaxshi unda ayt-chi, beshinchi – Yorqin hayot amali nima?

- Bu O`zlikni anglash amali bo`lib, donishmandlar insonning ichki kuchiga ishonganlar. O`zingni anglab yetish uchun vaqt ajratar ekansan, sen avval borligini ham o`ylamagan shaxsiy borlig`ini imkoniyatlaridan boxabar bo`lasan[2].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1.F.I.Xaydarov,N.I.Xalilova.” Umumiy psixologiya”.TOSHKENT-2010.

2.Robin Sharma.” O`z “Ferrari”sini Sotgan Rohib”. YOSH KUCH:.-TOSHKENT-2021.